

CHIQINDILAR MUAMMOSI

Nafasov Muhammad Ali o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Biologiya 2-kurs talabasi.

Suyunov G'olib Tuflı o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

suyunovgolib0707@gmail.com.

Jamolov Ma'murjon Azmaddin o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Butun dunyo bo'yicha chiqindilarni sarhisob qilish, chiqindilar muammosiga noodatiy usullar bilan yondashgan holda maqbul yechimlar izlab topish, aholiga zarar yetkazmagan holda chiqindilarni utilizatsiya ya'ni bartaraf qilish chora-tadbirlarining yangi usullarini o'ylab topish.

Kalit so'zlar: Demografiya, utilizatsiya, radioaktiv, sintetik, xomashyo, global, polietilen, erroziya, bioxilma-xillik.

ПРОБЛЕМА ОТХОДОВ.

Аннотация: обобщение отходов по всему миру, поиск оптимальных решений, подходящих к проблеме отходов нетрадиционными методами, утилизация отходов без ущерба для населения, т. е. разработка новых методов мероприятий по ликвидации.

Ключевые слова: демография, утилизация, радиоактивный, синтетический, сырье, глобальный, полиэтилен, эрозия, биоразнообразие.

WASTE PROBLEM.

Annotation: summing up waste around the world, looking for optimal solutions to the problem of waste in unusual ways, devising new methods of disposal of waste i.e. elimination measures without harming the population

Keywords: demography, disposal, radioactive, synthetic, raw materials, global, polyethylene, erosion, biodiversity.

Shahar va qishloqlarimiz chetlarida, yo'l yoqalarida pala-partish to'kib tashlangan axlatlar doim ko'zga tashlanib turadi. Bu chiqindilar bizning issiq iqlim sharoitimizda har xil kasallik tarqatuvchi mikroblarning tez ko'payishi uchun zamin yaratadi.

Chiqindilar qattiq, suyuq, gaz xolatda bo'ladi, chiqindilar kelib chiqishi harakteriga ko'ra: sanoat chiqindilari, konlardan chiqadigan chiqindilar, eskirgan mashinalarning qoldiqlari, chorva fermerlardan chiqqan chiqindilar, kasalkonalardan chiqqan chiqindilar, radioaktiv chiqindilar, uy-ro'zg'or chiqindilari.

Chiqindilar ichida eng xavfisi radioaktiv chiqindilar AQSH va Yevropa mamlakatlarida atom elektrostansiyalaridan atom suvosti kemalaridan chiqqan radioaktiv chiqindilar va kimyo korxonalaridan chiqqan chiqindilar o'ta zaharli

moddalarni yo‘q qilish qiyin muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Keyingi yillarda buyumlarni o‘rash va tashish uchun mo‘ljallangan sintetik materiallar juda ko‘payib bormoqda, bular chirimaydi va yig‘ilib qolaveradi.

Chiqindilar bu xomashyodir shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda chiqindilar sotib olinadi, qayta ishlanadi. Bizda ham ularni qayta ishlash yo‘lga qo‘yilsa chiqindilar tayyor xomashyoga aylanadi muhitni buzmaydi, qanchadan-qancha foyda olinadi, atmosferaga zararli moddalar chiqishini oldi olinadi, insonlarga ko‘plab kasalliklarning kelib chiqishi to‘xtatiladi bir qator ekologik global muammolarning yechimi topiladi.

Masalan: Germaniyada chiqindilar tartib bilan yig‘ib qo‘yiladi oziq-ovqat chiqindisi alohida, polimer chiqindi alohida, shunda ularni qayta ishlash ancha qulay. Yaponiya chet davlatlar chiqindisini sotib oladi.

O‘zbekistonda yiliga 100 mln tonna turli chiqindi chiqadi hajmi 30 mln metr kub hajmni egallaydi, 14 % toksik zaharli hisoblanadi, shulardan 0.2 % iginha ikkilamchi xomashyo sifatida foydalaniladi. Respublikamizda ro‘yxatdan o‘tgan 175 ta chiqindixonalar mavjud. 2 ming hektar yer maydonni egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi qattiq maishiy chiqindilar tashib ketish Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi Toza hudud Maxsustrans DUK tomonidan amalga oshiriladi. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan dasturda bu ishlarni moliyalashtirish uchun 1 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan.

Obodonlashtirish boshqarmalariga 237 ta maxsus texnika xarid qilish, 94 ta garaj qurish, qattiq maishiy chiqindilar uchun 168 ta elak qurilmalari o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Toza hudud korxonalariga 210 ta maxsus texnika xarid qilingan. Mamlakatimizda aholi jon boshiga chiqindini yig‘ishtirib olish uchun to‘lov 2000 so‘m yoki 25 sentni tashkil etadi.

- Qattiq maishiy chiqindilarning morfologik tarkibi

• Fraksiyalar	Fioz miqdori %
• Qog‘oz	18,9 %
• Oziq chiqindilari	38,4 %
• Daraxt	4,9 %
• Metall	3,4 %
• Gazlama chiqindi	3,9 %
• Rezina teri chiqindi	0,8 %
• Oyna	3,7 %

• Toshlar 8,9 %

• Endi xisob-kitob qilib chiqsak masalan qog‘oz misolida. Agar bir kunda O‘zbekistonda bir kishi 0,7-1 kg chiqindi chiqarsa 200 gr (0,2) kg mi qog‘oz chiqindi ulushiga to‘g‘ri keladi.

• Qog‘oz chiqindi 1 kunda

• O‘zbekistonda - 6600 tonna

• Markaziy osiyoda - 13200 tonna

• Butun dunyo bo‘yicha - 1,5 mln tonna ni tashkil etadi.

• 1 yillik ko‘rsatkich.

• O‘zbekistonda 2 mln 400 ming tonna

• Mar Osiyoda 4 mln 800 ming tonna

• Butun dunyo 440 mln tonna.

• Agar shuncha miqdorda qog‘oz chiqindi tashlab yuborilmay qayta ishlansa:

• O‘rta xisobda 15-20 yoshli diametri 40 sm li daraxt 4 tasi bir tonna qog‘oz beradi, 1 yilda 440 mln tonna qog‘oz isrof bo‘layotgani aniq

• 1 tonna qog‘oz - 4 ta daraxt

• 440 mln tonna - 1 mln 700 mingta daraxt.

• 500 ta daraxt - 1 hektar maydonda.

• 1 mln 700 ming daraxt - 3400 ga maydon.

• 1 hektar o‘rmon 1 yilda 40 tonna kislород chiqaradi, 3400 hektar o‘rmon 136 ming tonna kislород ishlab chiqaradi.

Insonlarning yashashi uchun eng muhim bo‘lgan birlamchi manba toza kislород saqlab qolinadi bundan tashqari qancha changni yutadi, shovqinni yutadi, iqlim harorat isib ketishini oldini oladi, daraxtlar ildi suvni shimib barglari orqali katta miqdorda suvni transpiratsiya qiladi havoning nisbiy namligini oshiradi, katta miqdor quyosh nurini yutadi. Bioxilma-xillikni turlar soni o‘simglik hayvonat dunyosiga ta‘siri juda katta, yer tuproq tarkibi sho‘rlanishi erroziyasi cho‘llanish oldini oladi global iqlim isishining oldini oladi.

Hali bu faqat bиргина qog‘oz chiqindisi misolida, huddi shu kabi: politilen, oyna, tosh, metall, rezina kabi ko‘plab chiqindi xomashyo mahsulotlari chiqadi.

Chiqindi bu xomashyo to‘g‘ri foydalilanigan tabiat ne‘mati.

Inson ongli zararkunanda.

Maqsadimiz: bu muammolarni oqibatlari ta'siri natijalarini insonlar onggiga chuqurroq yanada mustahkamroq singdirish, ularda tushuncha hosil qilish, ularni uygo'tishga, befarq bo'lmashlikka chaqirish.

Tabiat ne'matlaridan aqli ravishda foydalanaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent 2005-yil.
2. Azmiddin o'g, Jamolov Ma'murjon. "Shurtan gaz-kimyo kompleksining 6401-separatordan ajratilgan chiqindi suyuq fraksiyasining tarkibini o'rganish." Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 8.2 (2024): 3-6.
3. G'olib, Suyunov. "mollyuskalar evolyutsion taraqqiyot yo'li." the theory of recent scientific research in the field of pedagogy 1.7 (2023): 98-100.
4. G'olib, Suyunov. "Mollyuskalar tipi." o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.16 (2023): 806-813.
5. G'olib, Suyunov. "Mollyuskalarning kelib chiqish tarixi sistematikasi." the theory of recent scientific research in the field of pedagogy 1.7 (2023): 92-97.
6. G'olib, Suyunov, Nafasov Muhammad, and Haydarov Samandar. "talabalarda ekologik madaniyat va muhit haqida tushunchalarini shakllantirish usullari." pedagog 6.4 (2023): 597-600.

Veb saytlar:

1. [w.w.w. econews. uz](http://www.econews.uz).
2. [w.w.w. climate. uz](http://www.climate.uz).